

HUQUQIY XULQ-ATVOR, HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK: NAZARIYA, AMALIYOT VA QONUNCHILIK TAHLILI

Soliev Saidjon Ulug'bek o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 325-gurux Kechagi ta'lim yo'nalishi o'quvchisi Email.
saidjonsoliyev11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishi jamiyatda ijtimoiy tartibga solishning asosi bo'lgan huquqiy xulq-atvorning mohiyatini, huquqbuzarlikning kelib chiqish sabablarini va ularga nisbatan qo'llaniladigan yuridik javobgarlik tizimini kompleks ravishda o'rganadi. Maqolada huquqiy ongning xulq-atvorga ta'siri, huquqbuzarlik tarkibining elementlari va zamonaviy huquqshunoslikdagi javobgarlik turlari chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'z: Huquqiy hulq atvor. Huquqbuzarlik. Yuridik javobgarlik. Huquqiy madaniyat.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyatni boshqarishning eng samarali vositasi sifatida huquq normalari shakllandi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilanganidek, "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatdir".

Ushbu qadriyatlarni himoya qilish uchun nafaqat qonunlar yaratilishi, balki insonlarning o'sha qonunlarga mos ravishda harakat qilishi — ya'ni huquqiy xulq-atvori birlamchi ahamiyatga ega. Huquqbuzarlik darajasini kamaytirish va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun davlat va jamiyat yuridik javobgarlik mexanizmlaridan unumli foydalanishi lozim. Ushbu maqola huquqiy madaniyatning shakllanishidan tortib, jazo muqarrarligi tamoyiligacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

HUQUQIY XULQ-ATVOR:

Huquqshunos olimlarning (masalan, S.S. Alekseyev, Z.M. Islomov) fikricha, huquqiy xulq-atvor — bu shaxsning ongli ravishda huquq normalari doirasida amalga oshiradigan, davlat tomonidan himoya qilinadigan ijtimoiy foydali harakatidir.

Xulq-atvorning tarkibiy qismlari:

Subyektiv tomon: Shaxsning niyati, maqsadi va huquqiy ongi.

Obyektiv tomon: Tashqi ko'rinishda namoyon bo'ladigan harakat yoki harakatsizlik.

Huquqiy faollik: Bu eng yuqori darajadagi xulq-atvor bo'lib, bunda shaxs nafaqat qonunni buzmaydi, balki boshqalarni ham huquqbuzarlikdan qaytaradi, qonun ijodkorligida qatnashadi. Konformistik xulq-atvor: "Hamma qanday bo'lsa, men ham shunday" tamoyili bo'yicha, shunchaki atrofida qilargalarga ergashib qonunni buzmaslik. Marginal xulq-atvor: Shaxsning ichki dunyosi qonunlarga qarshi bo'lishi mumkin, lekin u faqat jazodan qo'rqqani uchun qonun doirasida harakat qiladi. Bu "xavfli" xulq-atvor hisoblanadi, chunki nazorat bo'lmagan joyda bunday shaxs huquqbuzarlikka moyil bo'ladi.

Yuridik javobgarlikning mohiyati

Yuridik javobgarlik — bu davlatning majburlov kuchi orqali huquqbuzarga nisbatan ma'lum mahrumiyatlar (mol-mulkini musodara qilish, ozodlikdan mahrum etish, jarima) qo'llashidir. Uning maqsadi — qasos olish emas, balki tarbiyalash va profilaktika (ogohlantirish).

Javobgarlikning zamonaviy tamoyillari

O'zbekiston sud tizimida quyidagi tamoyillar ustuvor etib belgilangan: Insonparvarlik: Jazo insonning qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak. Aybi uchun javobgarlik: Shaxs faqat o'zi sodir etgan va aybi isbotlangan qilmish uchun javob beradi. Bir jinoyat uchun ikki marta jazo bermaslik (Non bis in idem): Bu xalqaro huquqiy norma bo'lib, O'zbekiston qonunchiligida ham mustahkam o'rin olgan.

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH VA HUQUQIY MADANIYAT

Huquqbuzarlikka qarshi kurashish faqat jazo berish bilan bitmaydi. Buning uchun: Huquqiy nigilizmga barham berish: Odamlarda qonunlarga ishonchsizlik hissini yo'qotish. Raqamlashtirish: Davlat xizmatlarini raqamlashtirish korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni kamaytiradi. Mahalla instituti: Huquqbuzarliklar profilaktikasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

XULOSA

Huquqiy xulq-atvor jamiyatning madaniyat ko'zgidir. Huquqbuzarlik — bu jamiyat organizmidagi "kasallik" bo'lsa, yuridik javobgarlik uni "davolash" vositasidir. O'zbekistonda "Qonun ustuvor — jazo muqarrar" tamoyili hayotga kengroq tatbiq etilishi, fuqarolarning huquqiy ongi darajasi bilan bevosita bog'liq. Faqat kuchli huquqiy tarbiya va adolatli sud tizimi orqali biz huquqbuzarliklar kamaygan barqaror jamiyatga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023.
Karimov I.A. "O'zbekiston: Adolatli jamiyat sari".
Islomov Z.M. "Davlat va huquq nazariyasi". – Toshkent: Adolat, 2007.
Xalqaro inson huquqlari deklaratsiyasi (BMT).
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi darsliklari (2022).